

«ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR  
TADBIQI»

**Ablanazarova Hilola Absattarovna**

*Andijon viloyati Marhamat tumani*

*26-Maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

**Annatsiya:** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'rganish, ta'limning tashkil etishida inavatsion yondashuvda bo'lish, pedagogik texnologiyalarni ona tili darslarida eng samarali interfaol usullar yordamida tadbqiq etish yo'llari, ularni o'quv jarayonida qo'llanishi haqida va o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, tashabbuskorlikka, o'zaro hamjihatlikda ish olib borishga, fikrlarini ravon bayon etishga undashi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Konstitutsiyasida e'tirof, empirik, ta'limiy-tarbiyaviy, pedagogik texnologiya, tadbqiqot obyekti, agar texnologik, umumpedagog, computer texnologiyalari.*

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqbol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati qatoridan munosib joy topishga qaratilgan ezgu niyatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu niyatlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, binobarin, kelajak avlodga zarur bilim asoslarini mukammal o'rgatish, ulardan keng dunyoqarash bilan birga tafakkur ko'lamini ham barpo qilish, ma'naviy-ahloqiy sifatlarni rivojlantirish to'g'risidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Chunonchi, vatanimizning yorug' istiqbolini yaratish, uning nomini dunyoga keng ko'lamda namoyon qilish, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosimizni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil yurtimizning rivojlangan mamakatlar qatoridan o'rin egallashni ta'minlash kelajak avlodni komil inson va malakali kadrlar qilib yetkazishga bog'liqdir.

Shuni aytish kerakki, Ona tili darslarida ta'lim jarayonining borishi o'quvchilarning qo'yilgan maqsadlari yo'lida harakat qilishlarini doimiy tarzda nazorat qilishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon texnologik ta'lim tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini namoyon etadi. Shuning natijasida ped texnologiya ta'lim maqsadiga tashkiliy-uslubiy vositalar yordamida erishishligini ifodalaydi.

Bugungi kunga kelib o'qituvchi pedadodlarga yana jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida qarala boshladi. Bu esa o'z o'rnida ulardan yuqori malaka, sifatli bilim

berish ko'nikmalarini talab qiladi. Sinfda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan jamiyki jabhalarning ko'zgusi sifatida nomoyon bo'ladi. O'quvchilar oldida turgan ustozlari orqali dunyoni ko'radi, anglaydi tahlil qiladi. Mana shu boisdan, pedagog o'z ta'limolguvchisining qalbiga kirib bora olishi, qo'llaridan tutib jamiyki olamni

anglashga, insoniylik xususiyatlarini yurakka jo qilishga, samimiylikka chorlashi zarur. Qarab turgan qora ko'zlarning bizdan nimani so'rayotganini, nima istashini bilganimizdagina ularga to'g'ri yo'lni ko'rsata olamiz. Kerak paytida rag'batlantirishni, kerak paytidi kamchiliklarini asta- sekinlik bilan bartaraf qilib borishni bilish haqiqiy pedagogning eng katta yutug'i. O'zini tutish, to'g'ri gapirish madaniyati o'qituvchiga hurmatni oshiradi. Nutq ravon, har bir berilgan ma'lumot aniq dalillar asosida, ishonarli qilib aytilsa, albatta, o'zlashtirish sifati yaxshi bo'ladi. To'g'ri, shunchaki gap bilan biror natijaga erishish qiyin, ijodkorlik, izlanuvchanlik, yaratuvchanlik asosida tashkil qilingan dars o'z natijasini bermasdan qolmaydi. Ayniqsa, ona tili darslarini o'qitishda nutq muhim o'rin egallaydi. Ravon gapirish, o'z fikrini erkin bayon qila olish, tasvirlashda so'z boyligidan o'rnida foydalanish, so'zlarni bexato talaffuz qilish ona tili darsining eng muhim omili. Bolani hali maktab yoshiga yetmasdan turib o'z ona tilini bilishga o'rgatish kelajakda qaysi sohada faoliyat yuritmasin alohida ahamiyat kasb qiladi. Oila davrasida turli xil ertak va hikoyalar eshitib, she'rlarni ko'p yod olgan bolalar maktabga borgan paytda tengdoshlariga nisbatan ancha chaqqon va zukko bo'lishdi. 5-6- sinfga kelib esa ancha bilim doirasi kenggayadi, o'z fikrini mustaqil, tortinmasdan ayta oladi. Ona tili darsini o'qitishda eng asosiysi, o'qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorlik qobiliyati o'quvchi bilimiga poydevor vazifasini o'taydi. Bugungi internet va axborot texnologiyalari davrida rivojlanish juda yuqori. Mana shu boisdan, dars tashkil qilishda eng so'nggi texnologiyalardan foydalanish afzalroq. Ona tili darslarida "Sinkveyn" metodini so'z turkumlarini o'rgatishda, "Bumerang" metodini o'tilgan mavzularni mustahkamlash, matn ustida ishlashda, "Venn diagrammasi" metodini gap bo'laklarini o'rgatishda, "FSMU" metodini matn va rivoyatlarni tahlil qilishda, "Blits" so'rov metodini yangi mavzuni mustahkamlashda yoki yangi mavzu tushuntirishdan oldin qo'llash samarali natija beradi. Bu kabi usullarni ko'plab misol keltirish mumkin. Shu o'ringa o'zimning ish faoliyatimda ko'p qo'llanadigan metodlardan keltirib o'taman.

Ona tili darslarida agar texnologik tizimlarida asosiy e'tibor bilimlarni uzatish va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar darajasini aniqlash maqsadida nazorat yo'lga qo'yish borasidagi harakatlar tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lsa, uslublar majmuasini tanlash asosan empirik asosda amalga oshiriladi. Texnologik yondashuvning yana bir xususiyati bo'lgan davriy ketma-ketlik pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini yoritishga xizmat qiladi va rejalashtirilgan standart natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Ta'limning to'laligicha standartlashtirishga yo'naltirilganligi texnologik yondashuvga xos bo'lib, u didaktikada ta'limning asosiy jihatlaridan biri sifatida e'tirof etiluvchi va keyingi tillarda butun jahon pedagogikasining tadqiqot obyektiga aylangan o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Ona tili darslarida yoshlarga bunday yondashuv ta'lim samaradorligiga erishish, ta'lim jarayonining mazmunini, o'quvchiga ilmiy bilimlarni turli jarayonining

mazmunini, o'quvchiga ilmiy bilimlarni turli vositalar yordamida yetkazib berishni nazarda tutadi. Umumpedagogi tamoyil nuqtai nazaridan ta'lim natijasi samarali ravishda o'zlashtiriladigan bilim, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi tadqiqotchilik faoliyati, bu orada orttirilgan tajriba hamda o'quvchilarda axloqiy-hissiy sifatlarning shakllanganligi bilan belgilanadi. Yana bir e'tiborga olinishi lozim bolgan jihat bu ona tili va adabiyot darslari davomida kompyuter texnologiyalardan foydalanishdir. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfxonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etishi, so'ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalari yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlilarini tanlab yuklab olishi lozim. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual o'rganishni rivojlantirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi. Bu usul Grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalariidan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi.

“Sirli albom” usulidan 5-sinflarda so'z turkumlarini o'qitishda ham, leksikologiyani o'rgatishda ham qo'llansa bo'ladi. Muhimi qaysi darsga qanday yangi usullarni yaratgan holda samarali dars tashkil qilish o'qituvchining mohirligiga bog'liq. Biz o'zimizdan shunday bir pedagog yaratishimiz lozimki, bizga kelajakda uchrab qolgan o'quvchi buyuk bir shaxsni, ulug' insonni ko'rgan kabi munosabatda bo'lsin. Yosh avlod dunyoga bizning ko'zlarimiz bilan qarashni o'rganar ekan, ularga qanday tasavvur yaratib berish va o'sha tasavvurda yashashga o'rgatish o'zimizga bog'liq. Shijoat va tinimsiz mehnat asosida qilingan har bir ish o'z mevasini albatta beradi!

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish borgan sayin yuksalib bormoqda, bunday bo'lishiga sabablardan biri shu kungacha ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish esa, ularni mustaqil tanqidiy fikrlashga, kerakli narsalarni izlab topishga, muhokama va xulosa qilishga o'rgatadi. O'quvchi bu jarayonda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi, ta'lim o'quvchi-talabalarga yo'naltiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o'yinlar va kompyuter texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishlik natijasida yanada mukammal, qulay va tez bo'lishi mumkin.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Pedagogik fanlari o'qitishning mazmuni va metodi. Ilmiy tekshirish Instituti.

2. O`rta maktablarda chet tili o`qitish kursil Professor Setlin V.S. tahriri Toshkent —O`qituvchil 1978 y.

3. Jabborov V. —Talabalarning chet tilidan mustaqil ishlari, Toskkent —1984 y.

4. Rahmatova D. Istiqlol va til ilmiy amaliy anjuman materiallari Toshkent 2007-yil 3-qism 209-211 betlar.

5. Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o`rganishda innovatsion metodlar. *Science and Education*, 1(5).

6. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.